



POSTWAR RECOVERY AND DEVELOPMENT OF AGRICULTURE IN KALININ DISTRICT OF TASHKENT REGION: THE CASE OF THE “40TH ANNIVERSARY OF THE UZBEK SSR” COLLECTIVE FARM (1945–1971)

Alisher Azizovich Gulyamov

History Teacher, Department of Social and Humanities

Asia International University

E-mail: aligulyamov1997@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: kolkhoz, post-war reconstruction period, farm consolidation, mechanization, viticulture, vegetable growing, specialization.

Received: 04.09.26

Accepted: 05.09.26

Published: 06.09.26

Abstract: The article examines the post-war reconstruction and subsequent development of Uzbekistan's agriculture in 1945–1971 through the example of a local kolkhoz in the Kalinin (present-day Zangiota) district of Tashkent region. Drawing on a local source, it discusses the post-war reconstruction process, the consolidation of small farms following the 1948 and 1950 government decrees, technical development and mechanization of production in the 1960s, and the farm's specialization in viticulture and vegetable-potato growing. According to the findings, by the late 1960s income from viticulture accounted for 45 percent of the farm's total income. The study is based on the analysis of a primary descriptive-documentary source and aims to show the mechanism through which republic-wide policy was implemented at the local level.

TOSHKENT VILOYATI KALININ TUMANIDA QISHLOQ XO‘JALIGINING URUSHDAN KEYINGI TIKLANISHI VA TARAQQIYOTI: “O‘ZBEKISTON SSR 40 YILLIGI” KOLXOZI MISOLIDA (1945–1971-YILLAR)

Alisher Azizovich Gulyamov

Osiyo xalqaro universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar”

kafedrası tarix fani o‘qituvchisi

Email: aligulyamov1997@gmail.com

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: kolxoz, urushdan keyingi tiklanish davri, xo'jaliklarni yiriklashtirish, mexanizatsiya, uzumchilik, sabzavotchilik, ixtisoslashuv.

Annotatsiya: Maqolada 1945–1971-yillarda Toshkent viloyati Kalinin (hozirgi Zangiota) tumanidagi mahalliy kolxoz faoliyati misolida O'zbekiston qishloq xo'jaligining urushdan keyingi tiklanishi va keyingi taraqqiyoti tahlil qilinadi. Urushdan keyingi tiklanish jarayoni, 1948 va 1950-yillardagi davlat qarorlari asosida mayda xo'jaliklarning yiriklashtirilishi, 1960-yillardagi texnik taraqqiyot va mexanizatsiyalash, shuningdek uzumchilik hamda sabzavot-kartoshkachilik sohalarida ixtisoslashuv jarayonlari mahalliy manba asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 1960-yillar oxiriga kelib uzumchilikdan olinadigan daromad xo'jalik umumiy daromadining 45 foizini tashkil etgan. Tadqiqot birlamchi hujjatli-tavsifiy manba tahliliga asoslangan bo'lib, umumrespublika siyosatining mahalliy darajada amalga oshirilish mexanizmini ko'rsatishga xizmat qiladi.

ПОСЛЕВОЕННОЕ ВОССТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В КАЛИНИНСКОМ РАЙОНЕ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ: НА ПРИМЕРЕ КОЛХОЗА «40 ЛЕТ УЗБЕКСКОЙ ССР» (1945–1971 гг.)

Алишер Азизович Гулямов

Преподаватель истории кафедры социальных и гуманитарных наук

Международный университет Азии

E-mail: aligulyamov1997@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: колхоз, послевоенный восстановительный период, укрупнение хозяйств, механизация, виноградарство, овощеводство, специализация.

Аннотация: В статье анализируется послевоенное восстановление и последующее развитие сельского хозяйства Узбекистана в 1945–1971 годах на примере деятельности местного колхоза Калининского (ныне Зангиатинского) района Ташкентской области. На основе местного источника освещаются процесс послевоенного восстановления, укрупнение мелких хозяйств на основании постановлений 1948 и 1950 годов, техническое развитие и механизация производства в 1960-е годы, а также

специализация хозяйства в виноградарстве и овоще-картофелеводстве. Согласно результатам исследования, к концу 1960-х годов доходы от виноградарства составляли 45 процентов от общего дохода хозяйства. Исследование основано на анализе первичного документально-описательного источника и призвано показать механизм реализации общереспубликанской политики на местном уровне.

Kirish. Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi tiklanish davri O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarixining eng og'ir va shu bilan birga eng dinamik bosqichlaridan birini tashkil etadi. Urush yillarida frontga safarbar etilgan erkaklar o'rnini ayollar va o'smirlar egalladi, texnika va yoqilg'i tanqisligi mehnatning katta qismini yana qo'l kuchiga qaytardi. Urush tugagach, kolxoz xo'jaliklari oldida ikki xil, ammo bir-biri bilan chambarchas bog'liq vazifa turardi: birinchidan, urush yetkazgan zararni bartaraf etib, ishlab chiqarishni tiklash; ikkinchidan, davlat siyosati asosida xo'jaliklarni tashkiliy jihatdan mustahkamlash va texnik jihatdan qayta qurollantirish. 1950-yillardagi kolxozlarni yiriklashtirish siyosati, undan keyingi mexanizatsiyalash va ixtisoslashtirish jarayonlari respublika qishloq xo'jaligi qiyofasini tubdan o'zgartirdi.

Mavzuning tarixshunosligida umumrespublika ko'rsatkichlari va davlat qarorlari yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, bu siyosatning aniq bir kolxoz miqyosida - rahbariyat, mehnat tashkiloti, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va ijtimoiy hayot darajasida – qanday amalga oshirilgani mikrotarixiy jihatdan hamon yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tavsifiy va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida tekshirilayotgan kolxoz tarixiga bag'ishlangan mahalliy hujjatli-tavsifiy matn (xo'jalik yilnomasi) tahlil qilindi, undagi sana, miqdoriy ko'rsatkich, muassasa va shaxs nomlari tizimlashtirilib, davr voqealari davlat qarorlari, umumrespublika siyosati – bilan qiyosiy tahlil etildi. Manbadagi ayrim ko'rsatkichlar (masalan, 1949-yilgi moliyaviy ma'lumotlar) o'zaro solishtirilib, ichki nomuvofiqliklar aniqlangan va tuzatilgan holda taqdim etildi. Manbadagi mafkuraviy xarakterdagi izohlar davrning o'ziga xos uslubiy xususiyati sifatida qayd etilib, ulardan faqat faktik ma'lumot ajratib olindi.

Natijalar va muhokama. Urush yillari va tiklanishning boshlanishi (1945–1946):

Ikkinchi jahon urushi yillarida kolxoz xo'jaligi og'ir sinovdan o'tdi. Erkaklarning frontga safarbar etilishi natijasida dala ishlarining asosiy og'irligi ayollar va o'smirlar zimmasiga tushdi: ular tongdan qorong'i tushgunga qadar dala shiypnlarida yashab, ketmon bilan ishlashdi. Yoqilg'i tanqisligi va traktorlarning frontga ketganligi sababli texnika deyarli ishlamas, dala ishlarining katta qismi qo'l kuchi bilan bajarilardi. Shu bilan birga kolxozchilar o'z

tomorqalarida yetishtirgan yong‘oq, olma, turshak, jiydalarini jangchilarga jo‘natishar, mamlakat ichkarisidan evakuatsiya qilingan aholini qabul qilib, ular uchun turar-joy va oziq-ovqat bilan ta‘minlashardi. Chorvachilik sohasi sezilarli pasayishga yuz tutdi – qoramol boshi ko‘paymadi, eng yaxshi otlar jangchilarga jo‘natildi. Manbada qayd etilishicha, urush davomida kolxoz iqtisodiyoti sezilarli darajada pasaygan.

Urush tugagach, xo‘jalikni tiklash birinchi navbatdagi vazifaga aylandi. Bahorgi ekin ishlariga tayyorgarlikning yetarli emasligi kolxoz pravleniyesi va partiya tashkilotini rahbariyatni yangilash zarurligi haqidagi qarorga olib keldi.

Urushdan keyingi tiklanish va xo‘jaliklarni yiriklashtirish (1946–1950):

1946-yilda Lenin nomli kolxozning umumiy yig‘ilishida tuman partiya qo‘mitasi tavsiyasi bilan Ahmadjon Bo‘riyev rais etib saylandi, bu esa xo‘jalik hayotining asta-sekin jonlanishiga turtki berdi. Rahbariyat almashinuvidan so‘ng olingan ko‘rsatkichlar tiklanish dinamikasini yaqqol aks ettiradi: 1949-yilda xo‘jalikning umumiy daromadi 247 100 so‘mni, 1950-yilga kelib esa 260 ming so‘mdan ortiqni tashkil etdi [1].

1948-yil 19-aprelda qabul qilingan davlat qarori kolxoz mehnatini tashkil etishda muhim bosqich bo‘ldi: unda ishlab chiqarish brigadalari kolxoz ishlab chiqarishining asosiy shakli sifatida mustahkamlanishi, ma‘muriy-idora apparatining qisqartirilishi hamda mehnat kuni hisobining tartibga solinishi belgilandi.

Qo‘shni xo‘jaliklarda ham shunga o‘xshash tiklanish jarayoni kechdi: 1946–1949-yillarda yangi rais va faollar guruhi rahbarligida xo‘jalik qayta tiklandi, daromad yildan-yilga oshib bordi. 1949-yilda bu xo‘jalik yanada baquvvatroq Stalin nomli qo‘shni kolxoz bilan birlashdi.

1950-yilda partiya va hukumat kolxozlarni tashkiliy-iqtisodiy jihatdan mustahkamlash hamda mayda xo‘jaliklarni yiriklashtirish to‘g‘risida qaror qabul qildi: davlat tomonidan berilayotgan traktor va boshqa texnikadan mayda kolxozlar to‘liq foydalana olmasligi buning asosiy sababi edi. Qaror e‘lon qilingandan so‘ng, to‘rt oy ichida respublika bo‘yicha 5000 ta kolxoz yiriklashtirilib, ularning o‘rnida ancha yirikroq 1904 ta xo‘jalik tashkil topdi [2]. Mahalliy miqyosda bu jarayon aniq natija berdi: Lenin, Stalin va Vatutin nomli kolxozlar o‘zaro birlashib, “Stalin nomli kolxoz” nomi bilan yuritila boshladi. Yangi yirik xo‘jalikka mohir tashkilotchi Turg‘un Mirzayev rais etib saylandi; 1971-yilda unga SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi farmoni bilan Sotsialistik Mehnat Qahramoni unvoni berildi. Xo‘jalik keyinchalik ikki marta nomini o‘zgartirdi: 1961–1964-yillarda “O‘zbekiston”, 1964-yildan esa O‘zbekiston SSRning 40 yilligi munosabati bilan “O‘zbekiston SSR 40 yilligi” nomi bilan yuritila boshladi. Birlashish natijasida ma‘muriy apparat qisqartirilib, ortiqcha xodimlar bevosita ishlab

chiqarishga yo'naltirildi – bu 1948-yilgi davlat qarorining mahalliy amaliyotdagi izchil davomi edi.

Texnik taraqqiyot va ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash (1960-yillar):

1960-yillarga kelib xo'jalikda texnik taraqqiyot sezilarli tezlashdi. Muhandis-mexaniklar Nizom Ergashev va Rustam Ahmedov qishloq xo'jaligi mashinalarini takomillashtirdilar: to'rt qatorli yer tekislovchi ko'tarma mola (TNP-37) xo'jalikka yiliga 3141 so'm tejash imkonini berdi; kartoshka ekish mashinasi KSKN-2ning ariq olish bilan birlashtirilishi 550 so'm, sabzavot-piyoz-lavlagi ekish uchun mo'ljallangan SONP-2,8 markali seyalkaga qo'shimcha moslama o'rnatilishi esa yana 765 so'm tejab qolishga xizmat qildi. 1967-yilda beda quritishning yangi usuli joriy etildi.

Texnika parki ham izchil o'sib bordi: 1967-yilda xo'jalikda 25 ta mashina, 35 ta traktor va 80 ga yaqin arava bo'lgan bo'lsa, 1970-yilga kelib bu ko'rsatkichlar mos ravishda 27, 41 va 82 taga yetdi. Mexanizator Zakiya Aliyeva 1964-yilda 5 gektar yerga arpa-bug'doy ekib, hosildan so'ng xuddi shu yerga takroriy don va silosbop makkajo'xori ekdi, buning uchun alohida mexanizatsiya brigadasi tashkil qildi – yer haydashdan hosilni yig'ib olishgacha bo'lgan barcha ishlar mexanizatsiya vositasida bajarilib, qo'l mehnati keskin qisqardi. Bu – davrning ilg'or, ayniqsa ayol mexanizatorlar timsolida namoyon bo'lgan tendensiyasini ko'rsatuvchi xarakterli misoldir.

Sabzavotchilikda ham mexanizatsiyalash chuqurlashdi: 1965-yilda tajriba tariqasida kompleks mexanizatsiyalashgan sabzavotchilik zvenosi tashkil etilib, ekinlar qator oralarining kengaytirilishi ikki tomonlama parvarish qilishni va mehnat sarfini kamaytirishni ta'minladi [3]. 1967-yilda esa ikkita "naryadsiz" (mustaqil topshiriqli) kompleks mexanizatsiyalashgan zveno tuzilib, kartoshkaning 80 foizi mashinada kvadrat-uyali usulda ekildi, parvarish qilindi va hosili mashinada yig'ib olindi. Kichik dala uchastkalarining yiriklashtirilishi mexanizatsiya va suv resurslaridan to'liq foydalanishni ta'minlab, qo'l mehnati va mahsulot tannarxining pasayishiga olib keldi: yiriklashgan brigadalarda gektaridan olinadigan kartoshka hosili 225 sentnerga, ba'zi brigadalarda esa silosbop makkajo'xori hosili 600–900 sentnerga yetdi.

Ixtisoslashuv: uzumchilik va sabzavot-kartoshkachilikning yetakchi tarmoqqa aylanishi. O'zbekiston KP Markaziy Komiteti va respublika Ministrlar Sovetining bog'dorchilik va sabzavotchilikni rivojlantirish to'g'risidagi qaroriga asosan, xo'jalikda uzumzorlar maydonini kengaytirish va hosildorligini oshirish choralari ko'rildi: 1966-yilda 4 gektar yangi maydonga tok, 1 gektarga mevali daraxtlar ekildi. Bu siyosat samarali natija berdi – 1960-yillar oxiriga kelib uzumchilikdan olinadigan daromad xo'jalikning umumiy daromadining 45 foizini tashkil qildi, bu esa uzumchilikni xo'jalikning yetakchi tarmog'iga aylantirdi.

Sabzavot-kartoshkachilik sohasida ham sezilarli o'sish kuzatildi. 1959–1965-yillar taqqoslamasi buni yaqqol ko'rsatadi: agar 1959-yilda jami 28 760 sentner kartoshka yetishtirilgan bo'lsa, 1965-yilga kelib bu ko'rsatkich 46 545 sentnerga, sabzavot bo'yicha esa 42 680 sentnerga (1959-yilgiga nisbatan 14 000 sentner ko'p) yetdi; kartoshka maydoni 56 gektarga kengaytirilib, o'rtacha hosildorlik 160 sentner/gektarga chiqdi. Gektaridan olinadigan daromad ham deyarli ikki baravar oshdi: kartoshka ekilgan yerdan 1798 so'm, sabzavot ekilgan yerdan 1865 so'm. 1969-yilga kelib mahsulot tannarxi ham pasaydi – kartoshkaning har sentneri 8 so'm 70 tiyinga, sabzavot 7 so'm 86 tiyinga tushdi [4].

Xo'jalikning issiqxona-parnik ho'jaligi ham rivojlangan: 1965-yilda 45,1 tonna pomidor, 38 tonna sabzavot, 180 tonna uzum yig'ishtirib olindi; parnik xo'jaligining har kvadrat metridan 15–16 kg mahsulot olinardi. 1970-yilda uch seksiyali issiqxonaning limon bo'limidan shahar aholisiga 13 000 donadan ortiq limon sotildi, plyonka ostida esa 929 sentner sabzavot yetishtirildi – bu qishki-erta bahorgi davrda shahar aholisini yangi mahsulot bilan ta'minlashning muhim vositasiga aylandi. Ortiqcha mahsulotning isrof bo'lishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida xo'jalikda sabzavotni tuzlash, konservalash va vinochilik ishlab chiqarishi yo'lga qo'yildi.

Xo'jalikning yutuqlari respublika va Ittifoq miqyosida ham e'tirof etildi: 1939-yildan chorvachilik, 1954-yildan esa sabzavotchilik yutuqlari bo'yicha Butunittifoq Xalq Xo'jaligi Yutuqlari Vistavkasi (VDNX) qatnashchisi bo'lib, bir necha bor turli darajadagi diplom va attestatlar bilan taqdirlandi (1954, 1956, 1958, 1959, 1960-yillarda chorvachilik, sabzavotchilik, kartoshkachilik va polizchilik yutuqlari uchun). Mirzaahmad Mahmudov boshchiligidagi brigada (brigadir – Sotsialistik Mehnat Qahramoni) 1970-yilda 43 gektar yerga kartoshka ekib, gektaridan 190 sentner, ertapishar Sedov navidan esa 220 sentnergacha hosil oldi; yaxlitlashtirilgan uchastkalarda ishlagan zvenolar gektaridan 223 sentnergacha hosil ko'tardi. Muvaffaqiyat asosida agrotexnik ilm-fan tavsiyalariga tayangan holda kuzgi tuproq tayyorlash, o'g'itlash, urug'lik navni to'g'ri tanlash (Sedov, Rannyaya Roza, Severyanin, Lorx kabi ertapishar, yaxshi saqlanadigan navlar) hamda dala uchastkalarini yaxlitlashtirish yotardi. Muhammad Hakimov brigadasining tajribasi bir yerdan bir yilda ikki hosil olish imkoniyatini ko'rsatadi: 1965-yil fevralda ekilgan Sedov kartoshkasi iyun boshida yig'ib olinib, o'sha yerga Sudya navli karam ekildi hamda kuzga borib yana hosil olindi – natijada bir gektar yer bir yilda jami 66 tonna mahsulot berdi.

Ijtimoiy-madaniy taraqqiyot:

Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'sishi xo'jalik a'zolarining moddiy-madaniy turmush darajasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Xo'jalik daromadining asosiy qismi mehnat kuni bo'yicha taqsimlanar, 15–19 foizi esa bo'linmas fondga ajratilardi. Kolxozchilarda yengil

avtomashina, mototsikl, televizor, sovutgich kabi narsalar paydo bo'ldi, ko'pchilik o'z uylarini qurdi.

Xo'jalikda 1398 gektar yer bo'lib, shundan 200 gektari bog'-uzumzor, 707 gektari sug'oriladigan haydalma yer, 144 gektari tomorqa sifatida ishlatilardi; sug'orish uchastkalari ilgari 1–2 gektardan 5–10–12 gektargacha yiriklashtirildi. Ijtimoiy tashkilotlar faol ishladi: xo'jalikda 180 kommunist bor edi; 1964-yilda tashkil etilgan kasaba uyushmasi 1967-yilga kelib 126 a'zoni birlashtirdi; 11 kishidan iborat xotin-qizlar soveti ayollarni jamoat ishlariga jalb etish, ularning huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanardi; besh kishidan iborat jamoat sudi esa jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarardi [5].

Ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida ham sezilarli infratuzilma yaratilgan edi: xo'jalikda uchta to'liq o'rta va ikkita yetti yillik maktab (jami taxminan 2500 o'quvchi), kasalxona, to'rtta med-punkt, tug'ruqxona, ambulatoriya faoliyat yuritardi; kasallik davrida o'rtacha ish haqining 50–80 foizi miqdorida nafaqa to'lanardi, taxminan 883 kishiga turli miqdorda pensiya belgilangan edi [6]. Madaniy-maishiy xizmatga sarflanadigan mablag' ham keskin oshdi: 1966-yilda 1670 so'm bo'lgan bo'lsa, 1969-yilga kelib bu ko'rsatkich 18 500 so'mga yetdi.

Xo'jalikning ijtimoiy tarkibi ko'p millatligi bilan ham e'tiborga loyiq – unda 22 millat vakili birga yashab, mehnat qilgan. Bu holat, urush yillaridagi millatlararo hamjihatlikning davomi sifatida, mintaqadagi ijtimoiy hayotning muhim xususiyatlaridan biri edi.

O'rganilgan mahalliy manba asosida shuni xulosa qilish mumkinki, 1945–1971-yillar oralig'ida ko'rib chiqilgan kolxoz xo'jaligi bir-biriga izchil bog'langan bir necha bosqichni bosib o'tdi: urush yillaridagi inqiroz va inson-texnika resurslari tanqisligi; urushdan keyingi tiklanish va yangi rahbariyat ostida iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishi; 1948 va, ayniqsa, 1950-yillardagi davlat siyosati asosida mayda xo'jaliklarning yirik, yagona kolxozga birlashtirilishi; 1960-yillarda texnik taraqqiyot va ishlab chiqarishni chuqur mexanizatsiyalash; va, nihoyat, uzumchilik hamda sabzavot-kartoshkachilik yo'nalishlarida ixtisoslashuv, bu esa xo'jalikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini ham ta'minladi.

Mahalliy misol respublika miqyosidagi umumiy tendensiyalarning – kichik xo'jaliklarni yiriklashtirish, mexanizatsiyalash va ixtisoslashtirish siyosatining – aniq amalga oshirilish mexanizmini ko'rsatadi: uzumchilikning xo'jalik daromadining deyarli yarmini (45%) tashkil etishi, ayni paytda sabzavot-kartoshkachilikda ham yuqori ko'rsatkichlarga erishilgani xo'jalikning bir tarmoqqa qaram bo'lmagan, diversifikatsiyalashgan rivojlanish yo'lini tanlaganidan dalolat beradi. Bunday mikrotarixiy tahlil umumrespublika siyosati bilan mahalliy amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni yanada aniqroq tushunish imkonini beradi va mavzuning

kengroq manba bazasiga (viloyat davlat arxivi hujjatlari, statistik yig'majmualar) tayangan keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон колхоз ва совхозлари тарихи (тарихий очерклар). III китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972.
2. Ризаев Г.Р. Сельское хозяйство Узбекистана 40 лет. –Ташкент: Госиздат УЗССР, 1957.
3. Ефимов В.И. Патриотический подвиг трудящихся Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. –Ташкент: Фан, 1972.
4. Юсупов Л.У. Социализм и творческая инициатива масс (Народное строительство в республиках Средней Азии в 1938–1950 гг.). –Ташкент: Фан, 1977.
5. Тилеукулов С.Т. Социалистическое преобразование и развитие орошаемого земледелия Узбекистана (1917–1965 гг.): тарих фанлари доктори диссертацияси.
6. O'zbekiston tarixi (1917–1991-yillar): darslik / mas'ul muharrir Q. Rajabov. – Toshkent, 2006.
7. Shamsutdinov R. Qishloq fojiasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun (O'rta Osiyo respublikalari misolida). – Toshkent: Sharq, 2003.
8. Abdullayev M. O'zbekistonda sovetlarning “quloq” qilish siyosati va uning fojiali oqibatlari (1925–1945 yillar): tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2002.